

Yuldashev Faxriddin Abduvasitovich, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent . Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti
e-mail: f.yuldashevphd@gmail.com



FOROBIYNING MUSIQIY FALSAFASIDA AFLOTUN VA ARASTU QARASHLARI UYG'UNLIGI

<https://zenodo.org/records/18869565>

Annotatsiya: Maqolada Abu Nasr Forobiy musiqiy falsafasida uyg'unlik tushunchasining mazmun-mohiyati hamda uning Aflotun va Arastu qarashlari bilan nazariy jihatdan aloqadorligi qiyosiy-falsafiy tahlil asosida yoritiladi. Tadqiqotda uyg'unlik tushunchasining ontologik, estetik, psixologik va axloqiy qatlamlari aniqlanib, Forobiy ta'limotida ushbu tushunchaning ko'p darajali va integrativ qirralarni kasb etishi asoslab beriladi. Shuningdek, Forobiy yunon falsafiy merosini ijodiy o'zlashtirib, musiqani matematik nisbatlar, ruhiy muvozanat va ijtimoiy barkamollikning yagona tizimi sifatida talqin qilgani ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijalari Forobiy musiqiy falsafasini Sharq va G'arb intellektual an'analari o'rtasidagi nazariy ko'priksifatida baholash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: musiqa falsafasi, uyg'unlik, kosmik tartib, katarsis, matematik nisbat, axloqiy tarbiya, qiyosiy tahlil

THE RELATIONSHIP OF PLATO'S AND ARISTOTLE'S VIEWS IN AL-FARABI'S PHILOSOPHY OF MUSIC

Abstract. This article presents a comparative-philosophical analysis of the concept of harmony in the musical philosophy of Abu Nasr al-Farabi and its theoretical relationship with the ideas of Plato and Aristotle. The study identifies the ontological, aesthetic, psychological, and ethical dimensions of the category of harmony and demonstrates its multi-layered and integrative character in al-Farabi's doctrine. Furthermore, it is shown that al-Farabi creatively reinterpreted the Greek philosophical heritage, understanding music as a unified system of mathematical proportions, spiritual balance, and social perfection. The findings of this research allow al-Farabi's musical philosophy to be considered as a theoretical bridge between the intellectual traditions of the East and the West.

Keywords: philosophy of music, harmony, cosmic order, catharsis, mathematical proportion, moral education, comparative analysis

СООТНОШЕНИЕ ВЗГЛЯДОВ ПЛАТОНА И АРИСТОТЕЛЯ В ФИЛОСОФИИ МУЗЫКИ АЛЬ-ФАРАБИ

Аннотация. В статье на основе сравнительно-философского анализа раскрывается сущность и содержание понятия гармонии в музыкальной философии Абу Насра Фараби, а также его теоретическая взаимосвязь с воззрениями Платона и Аристотеля. В исследовании выявляются онтологические, эстетические, психологические и нравственные аспекты категории гармонии, обосновывается её многоуровневый и интегративный характер в учении Фараби. Кроме того, показано, что Фараби творчески переосмыслил греческое философское наследие, интерпретируя музыку как единую систему математических пропорций, духовного равновесия и социального совершенства. Результаты исследования позволяют рассматривать музыкальную философию аль-Фараби как теоретический мост между интеллектуальными традициями Востока и Запада.

Ключевые слова: философия музыки, гармония, космический порядок, катарсис, математическая пропорция, нравственное воспитание, сравнительный анализ

Kirish

Sharq va G'arb falsafiy tafakkuri tarixida musiqa masalasi nafaqat estetik hodisa, balki ontologik, axloqiy va ijtimoiy mazmunga ega bo'lgan murakkab nazariy muammo sifatida talqin etilgan. Qadimgi yunon mutafakkirlaridan Aflotun va Arastu musiqani inson ruhiyati, tarbiya va davlat boshqaruvi bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilganlar [3]. Ularning qarashlarida musiqa uyg'unlik tamoyiliga asoslangan bo'lib, bu uyg'unlik kosmik tartib, ruhiy muvozanat va axloqiy kamolotning ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Islom Uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy esa yunon falsafiy merosini chuqur o'zlashtirib, uni yangi ilmiy-nazariy asosda rivojlantirgan allomadir. Faylasufning musiqaga oid qarashlari, ayniqsa, "Kitab al-Musiqa al-Kabir" asarida tizimli va mukammal tarzda bayon etilgan. Forobiy musiqani faqat san'at turi sifatida emas, balki matematik nisbatlar, kosmik tartib va inson ruhiyatining o'zaro uyg'unligi sifatida talqin qiladi [1]. Shu jihatdan uning ta'limotida Aflotun va Arastu qarashlarining davomiyligi hamda ijodiy qayta ishlanishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Biz Forobiyning musiqiy falsafasida Aflotun va Arastu qarashlari uyg'unligi masalasini qiyosiy-falsafiy tahlil qilishni amalga oshirishga urindik. Tadqiqotimizning maqsadi Forobiy ta'limotida qadimgi yunon musiqiy-estetik g'oyalarining qanday shaklda integratsiyalashganini aniqlash hamda uning mustaqil nazariy pozitsiyasini ochib berishdan iborat.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda sivilizatsiyalararo muloqot, madaniy meros va intellektual davomiylilik masalalari ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishiga aylanmoqda. Forobiy merosini yunon falsafasi bilan uzviy bog'liqlikda o'rganish Sharq va G'arb tafakkuri o'rtasidagi ilmiy-madaniy integratsiyani chuqurroq anglash imkonini beradi [5]. Shunday qilib, Forobiyning musiqiy falsafasi qadimgi yunon tafakkuri an'alarini davom ettirgan holda, ularni yangi ilmiy bosqichga olib chiqqan sintez modeli sifatida namoyon bo'ladi va bu holat mazkur tadqiqotning nazariy ahamiyatini belgilaydi.

Nazariy tahlil va metodologiya

Mazkur tadqiqotda Abu Nasr al-Farabi musiqiy falsafasida Aflotun va Arastu qarashlari uyg'unligi masalasini o'rganishda kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot asosan nazariy-falsafiy xarakterga ega bo'lib, quyidagi metodlar asosida amalga oshirildi:

1. Qiyosiy-falsafiy tahlil metodi orqali Aflotun, Arastu va Forobiy ta'limotlarida "uyg'unlik" tushunchasining mazmuni, mohiyati va funksional vazifalari o'zaro

solishtirildi. Qiyoslash jarayonida uyg'unlikning ontologik talqini; musiqaning axloqiy va tarbiyaviy vazifasi; musiqaning ruhiy (psixologik) ta'siri; kosmik tartib va matematik nisbatlar bilan bog'liqligi kabi mezonlar asos qilib olindi. Bu metod uch mutafakkir qarashlari o'rtasidagi umumiylik va farqli jihatlarni aniqlash imkonini berdi.

2. Germenevtik (matnshunoslik) tahlil. Forobiyning musiqaga oid asosiy manba "Kitab al-Musiqal al-Kabir" hamda Aflotun va Arastuning musiqaga doir g'oyalari bayon etilgan matnlar konseptual jihatdan tahlil qilindi. Germenevtik yondashuv orqali matnlardagi "garmoniya", "nisbat", "ruhiy muvozanat", "katarsis" kabi tushunchalarning mazmuniy konteksti ochib berildi. Mazkur metod mualliflarning atamashunoslik tizimini tarixiy-falsafiy kontekstda talqin qilish imkonini yaratdi.

3. Tarixiy-mantiqiy metod. Tadqiqotda g'oyalar evolyutsiyasi tarixiy ketma-ketlikda o'rganildi. Avvalo qadimgi yunon falsafasida uyg'unlik tushunchasining shakllanishi, so'ngra uning islom uyg'onish davri tafakkurida qayta talqin qilinishi tahlil qilindi. Tarixiy-mantiqiy yondashuv orqali Forobiyning qarashlari oddiy davomiylik emas, balki ijodiy transformatsiya natijasi ekanini asoslab berildi.

4. Konseptual tahlil metodi. "Uyg'unlik" tushunchasi markaziy kategoriya sifatida ajratib olinib, uning ontologik, gnoseologik, estetik, axloqiy va ijtimoiy mazmun qatlamlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Bu yondashuv Forobiy ta'limotida uyg'unlikning ko'p darajali va integrativ xarakterga ega ekanini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot Sharq va G'arb falsafasi o'rtasidagi intellektual aloqadorlik konsepsiyasiga tayangan holda olib borildi. Metodologik jihatdan integrativ yondashuv qo'llanilib, estetik falsafa, axloq falsafasi hamda musiqa nazariyasi elementlari birlashtirildi. Shunday qilib, qo'llanilgan metodlar Forobiyning musiqiy falsafasida Aflotun va Arastuning qarashlari uyg'unligini tizimli, izchil va ilmiy asosda yoritish imkonini berdi hamda tadqiqotning nazariy ishonchliligini ta'minladi.

Aflotun falsafasida uyg'unlik koinot va inson ruhiyati o'rtasidagi mutanosiblikni ifodalaydi. Uning qarashlarida musiqa kosmik tartibning estetik in'ikosi sifatida talqin qilinadi. Aflotunning qarashlarida ohang va ritm inson qalbining ichki tuzilmasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, shu sababli musiqa davlat tarbiyasi tizimining ajralmas qismi bo'lishi lozim. U musiqaning axloqiy ahamiyatini alohida ta'kidlab, noto'g'ri ohang va ritmlar shaxs ruhiyatida nomutanosiblik keltirib chiqarishi mumkinligini qayd etadi. Aflotun uchun uyg'unlik bu kosmik tartib va axloqiy muvozanatning birligidir. Musiqa esa ana shu uyg'unlikni shakllantiruvchi vosita hisoblanadi [4].

Arastu musiqaga nisbatan empirik va psixologik yondashuvni taklif etadi. U musiqani inson hissiyotlariga ta'sir etuvchi kuch sifatida tahlil qiladi va uning ahamiyatini "katarsis", ya'ni ruhiy poklanish jarayoni orqali asoslaydi [6]. Arastuning falsafasida musiqiy uyg'unlik insonning ichki kechinmalarini tartibga soladi, hissiy zo'riqishlarni kamaytiradi va ma'naviy muvozanatni ta'minlaydi. U musiqani nafaqat tarbiya vositasi, balki estetik zavq manbai sifatida ham baholaydi. Shunday qilib, Arastu bo'yicha uyg'unlik bu ruhiy muvozanat va emotsional tartibning ifodasidir.

Abu Nasr Forobiy yunon falsafiy merosini chuqur o'zlashtirgan holda, musiqani ilmiy asosda tizimlashtirgan mutafakkirdir [2]. Uning musiqaga oid qarashlari, ayniqsa, "Kitab al-Musiqal al-Kabir" asarida mukammal tarzda bayon etilgan. Forobiy uyg'unlikni bir necha darajada talqin qiladi:

- Matematik uyg'unlik tovushlar o'rtasidagi nisbatlarning aniq va ilmiy asoslangan mutanosibligi;

- Ruhiiy uyg'unlik musiqaning inson ruhiyatiga ta'siri va hissiy muvozanatni shakllantirishdagi roli;

- Ijtimoiy uyg'unlik musiqa orqali jamiyatda axloqiy birlik va tartibni mustahkamlash.

Forobiy Aflotunning kosmik uyg'unlik g'oyasini qabul qiladi, biroq uni aniq ilmiy-matematik asos bilan boyitadi. Shu bilan birga, Arastuning musiqani psixologik ta'siri haqidagi fikrlarini kengaytirib, uni shaxs kamoloti va ijtimoiy tuzum barqarorligi bilan bog'laydi.

Forobiyning ta'limotida Aflotun va Arastu qarashlari shundayligicha takrorlanmaydi, balki ijodiy sintez asosida yangi nazariy tizimga aylantiriladi. Aflotunda kosmik va axloqiy uyg'unlik g'oyasi; Arastuda musiqaning psixologik va tarbiyaviy ta'siri konsepsiyasi; Forobiyda esa ushbu ikki yo'nalish matematik, mantiqiy va falsafiy asosda integratsiyalashgan. Natijada Forobiy musiqani koinot, inson va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik modeli sifatida talqin etadi. Uning uyg'unlik haqidagi qarashlari estetik, ontologik va axloqiy birlikni ifodalaydi. Shunday qilib, Forobiy musiqiy falsafasida Aflotun va Arastu g'oyalari o'zaro uyg'unlashib, yangi, tizimli va mukammal ilmiy konsepsiya sifatida shakllanadi. Bu esa Sharq va G'arb falsafiy tafakkuri o'rtasidagi intellektual davomiylikning yorqin namunasi hisoblanadi.

Natija va muhokama

Tadqiqot jarayonida Aflotun, Arastu va Abu Nasr al-Farabi qarashlarida "uyg'unlik" tushunchasi turli, ammo o'zaro bog'liq mazmun qatlamlariga ega ekani aniqlandi. Aflotun qarashlarida uyg'unlik kosmik tartib va ruhiy muvozanatning ideal modeli sifatida namoyon bo'ladi. Musiqa inson qalbini kosmik tartib bilan moslashtiruvchi vosita hisoblanadi. Bu yerda uyg'unlik ontologik va axloqiy kategoriyadir.

Arastuning g'oyalarida esa uyg'unlik ko'proq psixologik mazmun kasb etadi. Musiqa inson hissiyotlariga ta'sir ko'rsatib, katarsis orqali ichki muvozanatni tiklaydi. Demak, uyg'unlik ruhiy barqarorlik va emotsional tartibni anglatadi.

Forobiy bo'yicha uyg'unlik tushunchasi yanada keng va tizimli ko'rinish oladi. U matematik nisbatlar uyg'unligi, ruhiy muvozanat, axloqiy barkamollik, ijtimoiy tartib kabi darajalarda talqin etiladi. Shu jihatdan Forobiy qarashlari ikki yunon mutafakkiri g'oyalarining oddiy yig'indisi emas, balki ularning integrativ va ilmiy qayta talqinidir.

Tahlil natijasida quyidagi uch bosqichli uyg'unlik modeli aniqlandi:

1. Kosmik uyg'unlik — koinotdagi tartib va mutanosiblik (Aflotun ta'siri).
2. Ruhiiy uyg'unlik — hissiy muvozanat va katarsis (Arastu ta'siri).
3. Ijtimoiy-axloqiy uyg'unlik — shaxs va jamiyat kamoloti (Forobiy sintezi).

Forobiy bu uch qatlamni yagona nazariy tizimga birlashtiradi. Ayniqsa, "Kitab al-Musiqa al-Kabir" asarida tovushlar nisbatini matematik asosda tahlil qilishi uning ilmiy yondashuvini ko'rsatadi. Bu yondashuv Aflotunning metafizik g'oyalarini konkret nazariy shaklga, Arastuning psixologik qarashlarini esa tizimli axloqiy konsepsiyaga aylantiradi.

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosaviy ilmiy natijalarga erishildi:

Birinchidan, Forobiy musiqiy falsafasida uyg'unlik tushunchasi ko'p darajali va integrativ xarakterga ega.

Ikkinchidan, Aflotun va Arastu g'oyalari Forobiy ta'limotida ijodiy qayta ishlanib, yangi nazariy bosqichga ko'tarilgan.

Uchinchidan, Forobiy musiqani kosmik, ruhiy va ijtimoiy birlik modeli sifatida talqin etgan.

To'rtinchidan, uyg'unlik konsepsiyasi Forobiyda estetik tushunchadan kengroq bo'lib, ontologik va axloqiy kategoriya darajasiga ko'tarilgan.

Shuningdek, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, Forobiy qarashlari Sharq va G'arb falsafiy tafakkuri o'rtasidagi intellektual davomiylikning yorqin namunasidir. Olingan natijalar Forobiy musiqiy falsafasini faqat tarixiy meros sifatida emas, balki zamonaviy estetik va psixologik tadqiqotlar uchun metodologik asos bo'la oladigan konseptual model sifatida talqin qilish imkonini beradi. Uyg'unlik tushunchasining ko'p qatlamli talqini bugungi kunda musiqaning shaxs rivoji va ijtimoiy muvozanatdagi rolini tushinishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Abu Nasr Forobiy musiqiy falsafasida uyg'unlik tushunchasi ko'p qatlamli, tizimli va integrativ xarakterga ega bo'lib, u Aflotun hamda Arastuning qarashlarining ijodiy sintezi asosida shakllangan. Aflotun uyg'unlikni kosmik va axloqiy tartibning ideal modeli sifatida talqin qilgan bo'lsa, Arastu uni inson ruhiyati va hissiy muvozanati bilan bog'lagan. Forobiy esa ushbu ikki yondashuvni ilmiy-nazariy asosda birlashtirib, musiqani matematik nisbatlar, ruhiy ta'sir va ijtimoiy barkamollikning uzviy birligi sifatida asoslab berdi. Shu tariqa, uyg'unlik tushunchasi Forobiy ta'limotida ontologik, estetik, psixologik va axloqiy mazmuni o'zida mujassam etgan universal kategoriya darajasiga ko'tarilgan.

Tadqiqot shuni ham tasdiqladiki, Forobiy yunon falsafiy merosini oddiy takrorlamagan, balki uni Sharq ilmiy tafakkuri asosida qayta ishlab, yangi konseptual bosqichga olib chiqqan. Natijada uning musiqiy falsafasi Sharq va G'arb intellektual an'analari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikning yorqin namunasiga aylangan.

Xulosa qilib aytganda, Forobiy musiqiy falsafasida uyg'unlik tushunchasi koinot, inson va jamiyat o'rtasidagi ichki mutanosiblikni ifodalovchi fundamental nazariy model sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu konsepsiya nafaqat tarixiy-falsafiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy estetik va pedagogik tadqiqotlar uchun ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Агзамова Н.Ш. Место музыки в эстетической концепции восточных перипатетиков (на примере творчества Аль-Фараби и Ибн Сина) : дис. ... канд. филос. наук. – Ташкент, 2011. – 132 б.
2. Рахимшикова М.К. Эстетические взгляды Абу Насра Аль-Фараби : дис. ... канд. филос. наук. – Ташкент, 2010. – 152 б.
3. Mannopov S. O'zbek xalq musiqa madaniyati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – 4–6-betlar.
4. Oripov Z.T. Sharq musiqiy manbashunosligi (X–XI asrlar). – Toshkent: O'zbek davlat konservatoriyasi, 2008. – 3–11-betlar.
5. Yuldashev, F. A. (2012). Epistemological problems in the treatise “Fi-Ma'oniyyal-akl” of Abu Nasr Farabi: monograph. *T.: Tamaddun.*
10. Haydarov X.S. Abu Nasr Forobiy ilmiy merosida musiqa ta'limi // *Inter Education & Global Study.* – 2024. – №7. – Б.69–75.